

EXPRESSION OF DESCRIPTIVE ORAL UNITS IN THE WORKS OF ERKIN AZAM

Buriyev Jamshid

Termez State University

Master's degree in Linguistics, Uzbek language

2-course master's degree

Annotation: In Uzbek literature, Erkin Azam's work has a special place due to its multifaceted and lexical impact. It is no exaggeration to say that it served a clear embodiment in the mirror. In this article, we will try to study the lexical aspects of oral speech units in the example of Erkin Azam's work.

Keywords: Oral speech, images, internal speech, morphemic units, story, dialogue, lexical unit,

ERKIN A'ZAM ASARALARIDAGI TASVIRIY OG'ZAKI NUTQ BIRLIKLARINING IFODALANISHI

Bo'riyev Jamshid

Termiz davlat universiteti

Magistratura Lingvistika o'zbek tili yo'nalishi

2-kurs magistranti

Annotatsiya: O'zbek adabiyotida Erkin A'zam ijodi o'zining serqirra va leksik ta'sirchanligi bilan alohida o'rin egallagan bo'lib, yozuvchi ijodida og'zaki nutq birliklari, xususan shevalarningning keng qo'llanishi qahramon obrazi va uning xarakterini kitobxon ko'z o'ngida yaqqol gavdalantirishga xizmat qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu maqola davomida biz Erkin A'zam ijodi misolida og'zaki nutq birliklarining leksik jihatlarni izchil o'rganishga harakat qilamiz.

Kalit So'Zlar: Og'zaki nutq, obrazlar, ichki nutq, morfemik birliklar, hikoya, dialog, leksik birlik,

Og'zaki nutq birliklarining adabiy qahramonga mansub ichki fel-atvor, fazilatlar, xususiyatlar birligi; qahramonning fikrlash tarzi, tabiati, his-tuyg'ularning, ma'naviy-axloqiy belgilarning namoyon bo'lishidagi o'ziga xosliklar; badiiy asarda harakat qiluvchi kishining, personajning individualligini ifoda etuvchi shaxs ozligi estetikasi va xarakterini ochib berishda orni nihoyatda katta desak mubolag'a bo'lmaydi. Yoki yozuvchi qahramonining xarakteridagi ilattatlarni kinoyaviy va so'zlashuv uslubiga xos birliklar, tagma'no orqali fodalash bilan bunga erisha oladi. Malsan:

“Kecha va kunduz” romanida Razzoq sofi tarifi boshdan oyoq istehzo bilan yo'grilgan. Razzoq sofi yana past toifa oldida muborak og'zini ochib, aziz tilini qaldiratmakka majbur boldi, - deb yozadi Cho'lpon. Yoki sofining nutqidan olingan (Og'iz bilan til – bandaning

jismida eng aziz va tabarruk a‘zolar. Ularni xotin kishiday past maxluq oldida xor qilnadimi?) “past toifa”, “muborak og‘iz”, “aziz tilni qaldiratmak” kabi kinoyaviy tagmanolar sofining mutassibliyiga ishora qiladi. Hissiyot agar muhit bo‘lsa, u shu muhitning to‘lqiniga asir bo‘lgan bir cho‘loq chumoli. G‘afur G‘ulom choloq chumoli (oyog‘idan ayrilib hech narsaga yaramaydigan) motivi orqali Mehrining farzandidan ayrilib, endi qolidan hech narsa kelmaydigan, hamma narsaga befarq bo‘lib yashayotganligiga ishora.

Tagmano shakllari pragmatika yonalishining asosiy muammolaridan biri sanaladi. Muloqotning ichki nutq shaklida tagmanoning kinoya ko‘rinishi ifodalanadi. Badiiy asardagi obrazlarning ichki nutqi bizga o‘zi haqida ko‘proq malumot beradi. Har qanday nutq shaklida nutq predmeti haqidagi axborotdan tashqari sozlovchi dunyoqarashi va ruhiyati haqida ham axborotlar yashirin tarzda ifodalanadi. Yoshlikdan qadrdon bo‘lgan, hozirda kimsan – oliy dargohning ustunlaridan biri Haydar Samadovich darajasiga kotarilgan dosti haqida Elchiyev shunday oylaydi: “... endi, hozir ichingda ahvolimdan kulsang, kinoya bilan kulsang kerak – bilaman, sezaman-da! Bu menga qilgan muomalalaringdan ham ayon. Ilgari men sen uchun “jorajon, Nuriddin jora” edim, keyin-keyin “ha, Nuriddinboy!” deya akalik qilmoqqa otting, korgan joyingda nasihatga tusharding; bora-bora quruq, rasmiyamo bir tarzda “Elchiyev” ataydigan bolding, endi esa yarim hazil, yarim chin, bepisand, istehzo aralash – “Elchiyevich”... Asta-asta hammasiga kondim, konikdim. Nima ham deya olardim – endi sen “Haydar Samadovich”san-da!”. Haydar Samadovichning Elchiyevga munosabatidagi kinoyasi nopisandlik, yuqoridan qarash, o‘z pozitsiyasining unikidan afzalliklarini his qilib, kibrlanishdan yuzaga kelgan kayfiyat bolib, muallif uchun estetik qimmatga ega emas, qahramonning ijtimoiy-manaviy qiyofasini tavsiflash nuqtayi nazaridan ahamiyatga ega, xolos.

Yuqoridagi holarlarni Erkin Azam ijodi misolida korib chiqamiz:

Tuni bilan uxlamay etyud chizishni mashq qilardi. Bir kecha allamahalda xonamga kirdi, kozlari kirtayib ketgan.

— Dadajon, esingizdami, huv yoshligimda qishloqqa borganimizda anuv gavdali amakingiznikida mehmon boluvdik. Uylaridagi devorda bir rasm koruvdim. Galati rasm edi.

Eslamay nima! Chamasi, ming-minglab nusxada tarqalgan plakatsimon bir tasvir-da. Bir yoni pushtinamo allaqanday yirik shaftoli, kokmak butogi tikkayib turibdi. Shuni uchtami-tortta qipyalangoch, qiyiqkoz mitti bolakay xuddi koptok misol qayoqqadir dumalatib ketayotir. Yonboshida xitoychami, tikka tushgan bir yozuv, xolos.

Yozuvchi sozlashuv uslubiga xos morfemik birliklar orqali shakllangan boruvdik, bo‘ludvik, ko‘ruvdik tardizdagi so‘zlar orqali qahramon ichki kechinmalari, orzu, intilish, xohish kabi hissiy bo‘yoqdorlik, qahramon ruhiyatidagi sog‘inch, eslash kabilarni ochib berishga intilgan va bunga erisha olgan. Yozuvchi shunchaki qahramonni asar davomida hech qachon tasvirlab qolmaydi, aksincha uning ichki kechinmalari, ruhiyati va xarakteriga nisbatan jiddiy mushohada yuridadi, bu esa oz navbatida Erkin Azam ijodida yaqqol namoyon.

O‘rmonov xonaga qaytib kirarkan, Rixsiyev:

– Oqsayapsizmi, Turobjon? – deb soradi.

– Ha, oyoq bir oz... – dedi O‘rmonov istar-istamas. – Sovuqda qaqshab qoladi.

– Ie, iye, chatoq-ku, oldini olish kerak. – Rixsiyev yayrab maslahat berishga tushdi: –

Kechasi qoy yogidan surtib yoting. Silatsangiz ham tuzuk. – Bu gapni aytdi-yu, labini tishladi.

– Hech isimaydi, – dedi Ormonov eshitmagandek. – Asabdan, deyishyapti.

– Siz spakoyniysiz-ku, Turobjon? Yo sovuq ustixoningizga otib ketganmikan? Tuzukroq poyabzal kiysangiz bo‘lmaydimi?

Rixsiyev tog‘ri aytadi: tuzukroq poyabzal kiysa bo‘lmaydimi? Biroq O‘rmonov kiyim-bosh haqida qayg‘urishni ortiqcha hisoblaydi, ochigi, bunga erinadi. Har gal qishda «Kelasi yil qalinroq kiyim olaman», deb ahd qiladi-yu, yozga chiqqach, hali bir kun qish – o‘zi yurak oldirgan, bezillaydigan fasl kelishini unutib qo‘yadi, negadir «Bu yil uncha sovuq bo‘lmasa kerak», deb o‘ylaydi, shunga umid bog‘laydi. Oqibatda esa har yili issiq kiyimsiz qolib, qishda diydirab yuradi.

Erkin Azam ushbu “Sovuq” hikoyasidan olingan parcha orqali, qahramonning bir nech jihatlarini ochib bera olgan, xususan undagi soddalik, andisha, gurur kabilar hikoya va dialog davomida yaqqol namoyon bo‘ladi. Yozuvchi qahramon jismida kechayotgan dardga nisbatan sabr qilish holatini birgina so‘z “Asabdan” deya izohlab qo‘yadi. Bu so‘z orqali u qahramon tipida yashiringa o‘z muammolarini yashirish, kutish, sabr etish kabi xarakterik birliklarni ma‘naviy jihatdan olib chiqqan.

“Bizdi gurung yoqmadi Imomovga. Bu yerda o‘zi siqilib yuribdi bola. Shaharga o‘rgangan-da, shaharmijozroq sal”

“Bahor” hikoyasidagi ushbu jummalarda qahramon nutqi (muallif nutqi) orqali yozuvchi uning hayotdagi darajasini, hayotdagi o‘rnini yo‘qotib qo‘ygan insonni tasvirlab beryapti. Qahramonning so‘zlarini o‘qib beixtiyor kulging keladi. Tagmanoning individual ko‘rinishlari faqat o‘zgagina xos kishilar nutqida qo‘llanib, ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni haqidagi tushunchaga ega bo‘linadi. Bunda so‘zlovchi nutqida qo‘llanilayotgan tagma‘no shartli tagmano sifatida sozlovchi va tinglovchi uchun tushunarli bo‘ladi. Boshqa ishtirokchilari uchun noma‘lum boladi. Individual tag ma‘noning bazi ko‘rinishlari asosan so‘zlovchi yoki tinglovchining xarakteri bilan aloqador.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘Yxati:

1. O‘rinboyev B.U. Вопросы синтаксиса узбекский разговорной речи. Автор...уок...уок..ф-н, Toshkent, 1976, 200-bet.
2. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hodjiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. “Hozirgi zamon ozbek adabiy tili”. Toshkent. 1980, 340-bet.
3. Shomaqsudov A. Sozlashuv stili. VKN: Ozbek tili stilistikasi masalalari. (VKN), № 427, Toshkent, 1972, 8-bet.
4. Shomaqsudov A. O‘zbek adabiy tili stillari haqida. (VKN filologik tadqiqotlar). Toshkent, 1970, 30-36 betlar.
5. Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. – Toshkent, “O‘qituvchi”, 2012.
6. Dostmuhammad X. Ijod – kongil munavvarligi. – Toshkent, Mumtoz soz”, 2011.
7. Mustaqillik davri adabiyoti. – Toshkent, Gafur Gulomnomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2006.
8. Hamdam Ulugbek. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2007.
9. Sodiq Sanjar. Ijodtng ottiz lahzasi. Adabiy – tanqidiy maqolalar. – Toshkent, “SHarq”, 2005.
10. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. –T.: «SHarq», 2007.
11. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: 2004.
12. T.Joraev “Ong oqimi modern” Fargona fargona nashriyoti 2009.

-
13. Erkin A`zam. SHovqin. Roman. – Toshkent, “SHarq”, 2012.1 Rasulov A. Jasur qalam
sohibi // Sharq yulduzi. – 2010. – №5. – B. 68-75; Shu muallif.